



Shukurullo Yo'ldoshmaxmudov Xurshid O'g'li

Farg'ona politexnika instituti talabasi

E-mail: shukurullo0501@gmail.com

(Tel:+998908451515)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7146057>

Annotatsiya: Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan axborot asrida raqamli iqtisodiyotning o'рни beqiyos. Rivojlangan mamlakatlar qatorida O'zbekistonni ham ko'rish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish zarur. Yangi imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda avtomatlashtirishni kengroq targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, iqtisodiyot, axborot, axborot kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish, raqamlashtirish.

Аннотация: Роль цифровой экономики в современный стремительно развивающийся информационный век неопределима. Чтобы увидеть Узбекистан в числе развитых стран, необходимо развивать цифровую экономику и устранять существующие проблемы. Эффективное использование новых возможностей и более широкое продвижение автоматизации остается одной из актуальных тем сегодняшнего дня.

Ключевые слова: цифровая экономика, экономика, информация, информационная связь, информационные технологии, автоматизация, цифровизация.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakat va insoniyat uchun afzal tomonlari talaygina. Misol uchun, axborot-kommunikatsion soxalarini rivojlanishi inson resurslari ichida eng qimmat bo'lgan vaqtimizni anchagina tejashimiz, undan samarali va oqilona foydalanishimizga keng imkon yaratadi. Agar biz biron bir kitobning qog'ozga nashr qilingan nusxasi o'rniga elektron formatini sotib olib bebaho vaqtimizni samarali foydalangan bo'lamiz. Axborotkommunikatsion texnologiyalarini rivojlanishi orqali nafaqat vaqtimiz va hatto mablag'imizni xam tejab qolgan bo'lamiz. Kommunal tolovlarni amalga oshirish uchun navbatlarda soatlab turishimiz yoki banklarga borishimiz talab etilmaydi, istalgan joyda istalgan vaqtda ishonchli tolov qilishimiz mumkin bo'ladi. Imkoniyati cheklangan yoki yosh go'dagi bolgan ayollarimiz uchun ham ushbu jarayon juda foydali bo'ladi. O'z uy yumushlarini bajarish bilan bir qatorda onlayn do'konlardan o'zlari uchun kerakli bo'lgan yoki ro'zg'or maxsulotlarini osonlik bilan xarid qilish imkoniga xam ega bo'ladilar. Bunga qo'shimcha ravishda, raqamli texnologiyani ta'limda ham samarali foydalanish






mumkin, o'quvchining o'zlashtirish darajasi, fanlardan olayotgan baholari, o'qituvchi va o'quvchini darslardagi davomati va yutuqlaridan xabardor bolish mumkin boladi.

Sanoat korxonalarida xam raqamli texnologiyalarni tashkil etish ish faoliyatini samarali qilishga sezilarli turtki beradi. Raqamlashtirishdan keng foydalanish korxonalar xarajatlar iqtisod qilishdan tashqari, sifat jarayonini yaxshilanishi va aniqlilik darajasini xamda sifatli boshqaruv jarayonini ham taminlaydi.

Axborot va kommutatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi odatda turli ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Bu ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiradi: raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, AKT sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, internet tezligi, uning mamlakat hududini qamrab olishi va aholi foydalanishi uchun qulayligi, elektron tijoratning rivojlanish darajasi. , elektron hukumat tizimida davlat xizmatlarining ulushi, tashkilotlarning AKT sohasi mutaxassislari bilan ta'minlanishi va boshqalar. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari rivojlanishini baholovchi ko'rsatkichlar ham muhim ahamiyatga ega.

1-JADVAL

Elektron hukumat indeksi¹



¹ UN E-Government knowledge base





Ko'rib turganimizdek, O'zbekistondagi elektron hukumatning rivojlanganlik darajasi past emas, ammo yuqori xam emas. Raqamli iqtisodiyotning asoschisi ma'lum ma'noda bizning ajdodlarimiz bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ulug' matematik Muhammad Xorazmiy bundan 1200 yil burun zamonaviy o'nli hisoblash tizimini yaratish va muammolarni yechishda algoritmik, ya'ni tizimli yondashish orqali raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos tamal toshini qo'yib bergandi. Bu bilan nafaqat ilm-fan, ta'limda, balki kundalik turmush, ayniqsa, iqtisodiyotda hisob-kitobni tezroq bajarish imkoni tug'ilgan. Ayni paytda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarlicha, biroq rivojlanish bosqichi juda sekin bormoqda. Buni bartaraf etish maqsadida yurtimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti, Sh.M.Mirziyoev 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganlaridek: "Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda"

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, dunyo mamlakatlarida bo'layotgani kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanib bormoqda. Bugungi hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirgi kunda uydan chiqmagan xolda ko'plab mahsulotlar va istemol taomlariga buyurtma qilishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin: bularga ko'plab sohalardagi monopoliya, internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi, axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi, fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi, qonunchilikning shaffof yemasligi, axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi, axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi, axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi yemasligi, boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki (ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi va shunga o'xshash xolatlarni sabab qilib olishimiz mumkin.





Yuqorida keltirilgan muommolar bosqichma-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахборот Технологиялар Иқтисодиёти / Экономика Информационных Технологий Хашимов Пазлиддин Зукурович, Мирзо Улуғбек Номидаги Ўзбекистон Миллий Университети «Иқтисодиёт Назарияси» Кафедраси Доценти, Иқтисодиёт Фанлари Номзоди Фахриддинова Заринабону Фахриддин Қизи, Мирзо Улуғбек Номидаги Ўзбекистон Миллий Университети 1-Курс Талабаси Ўзбекистонда Рақамли Иқтисодиётни Ривожлантириш Истиқболлари.
2. <https://Review.Uz/En/Post/Obzor-Centra-Ekonomicheskix-Issledovaniy-I-Reform-Razvitie-Cifrovoy-Ekonomiki-V-Uzbekistane-Za-Chetre-Goda#:~:Text=The%20development%20of%20the%20digital%20economy%20in%20the,Assess%20the%20development%20of%20information%20technologies%20are%20important>.
3. "Science And Education" Scientific Journal / Issn 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 Nurbek Ochildiyev.
4. Hukumat Elaktron Bazasi.

